

Oliy ta'lim: 2020-yili nima kutilmoqda?

2020-2021-o'quv yillardan boshlab Toshkent shahrida Shinxan universiteti filiali ish boshlaydi.

4-bet

"Zamonaviy maktab"lar qanday bo'ladi?

Asosiy muammo shundaki, 2004-2019-yillardan mobaynida ajratilgan mablag'lar faqatgina o'quv binosining sinfonalar uchun sarflangan. Maktab faollar zali, kutubxonasi, oshxona, qiz va o'g'il bolalar uchun alohida o'quv mehnat xonalari, o'qituvchilar, psixolog xonalari va boshqa qoshimcha binolar deyarli qurilagan.

5-bet

Mushtariy muhokamasi

"Ma'rifat" yulduzlari

AQSh Davlat departamentining ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro tadqiqotlari almashinuv kengashi byurosi tomonidan o'tkazilgan tanlovda dars ishlannam 1-o'ringa loyiq ko'rildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev imzosi bilan yozilgan nishonni Xalq ta'limi vaziri qo'lidan oldim. Bu yutuqlarimning barchasiga "Ma'rifat" gazetasi bosh sababchi bolganini etirof etmaslikning iloji yo'q!

9-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 1-yanvar, chorshanba № 1 (9274)

Xalq ziyorilari gazetasi

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Aziz vatandoshlar!

Mana shu quvonchli lahzalar da siz, azizlarni, ko'p millatlari butun xalqimizni Yangi yil bayrami bilan chin qalbimdan muborakbos etaman! Barchangizga sihat-salomatlilik, oilaviy baxt tilayman!

O'tib borayotgan yil mamlakatimiz uchun unutilus voqealarga boy bo'ldi. Turli qiyinchilik va sinovlarni ham boshimizdan kechirdik.

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" da ulkan yutuqlarga erishdik. Mamlakatimiz salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish yo'lida yangi qadamlar qo'yildi.

Iqtisodiyotimizning yetakchi soha va tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar, yangi transport tizimlari ishga tushirilmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, mo'l hosil yetishtirdilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirlik keng yo'l ochildi.

Yil davomida hududlarda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz, xotin-qizlar uchun ko'plab yangi ish o'rnlari yaratildi.

Davlat dasturlari asosida shahar va qishloqlarimiz, yurtimiz qiyofasi butunloq o'zgarmoqda.

2019-yilda ming-minglab yurt-

doshlarimiz, jumladan, kam ta'minlangan oilalar shinam uy-joylarga ega bo'ldilar.

Ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohasida tub burilish davri boshlandi.

Yangi-yangi bog'cha va maktablar, oly o'quv yurtlari, yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari, shifoxonalar, madaniyat va sport maskanlari buning etilmoqda.

Eng muhim, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdirliga daxldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi tobora kuchaymoqda.

Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, ochiqlik va erkinlik muhiti chiquq qoror topmoqda.

Kuni kecha Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlari buniya yaqqol tasdiqladi. Saylovlari O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lidan ortga qaytmasligini yana bir bor isbotladi.

Mustaqilligimiz, osoyishta hayotimiz kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyati mustahkamlanmoqda.

Tinchliksevar va amaliy tashqi siyosat olib borayotgan davlatimizning xalqaro maydonidagi obro'-e-tibori orbit bormoqda.

Muxtasar aytganda, 2019-yil yangi O'zbekiston tarixida har tomonloma yorqin iz qoldirmoqda.

Hurmatlari yurdoshlar!

Biz milliy yuksalishning muhim bosqichiga qadam qo'yamoqdamiz.

2020-yilda ham iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda keng ko'lamli islohotlarimizni faol davom ettiramiz.

Xususiy mulk, tadbirdirkorli va biznes uchun yanada qulay muhit yaratishga, yangi ish o'rnlari tashkil etishga alohida ahamiyat qaratamiz. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarini, aholi real daromadlarini ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Odamlarimizning yashash sharoitini, kommunal-maishiy xizmat sifatini yaxshilash, arzon va qulay uy-joylar qurish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yanada kengaytiramiz.

Farzandlarimizga munosib ta'lim va tarbiya berishga, ularning qobiliyat va iste'dodini ro'yogba chiqarishga barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lam turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan ishlarimiz yangi bosqichga ko'tariladi.

Nuroniy faxriyalarimiz, munis o-pa-singillarimizga e'tibor va g'amxo'rlikni yanada kuchaytiramiz.

Ijtimoiy himoya va ko'makka muhokamasi yurtdoshlarimizni doimiy qo'llab-quvvatlashga birinchi darajali ahamiyat beramiz.

Tinchlik va barqarorlikni, jamiyatimizda 'zaro hurmati va ahillikni mustahkamlash asosiy vazifamiz bo'lib oladi.

Bu boroda dunyo hamjamiyati, avvalo, yon qo'shnilarimiz bilan samarali hamkorlikni har tomonloma kuchaytiramiz.

Aziz yurtdoshlarim, qadrondalarim!

2020-yil har bir oila, har qaysi xo-nadonga qut-baraka, baxt va omad olib kelsin!

Barcha ezu maqsadlarimiz ro'yoga chiqsin!

Jonajon O'zbekistonimiz gulab-yashnasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!



Bayram kunlari mehrga muhtoj kishilarning ko'nglini olish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, mehr berish xalqimizning qon-qoniga singlib ketgan azally qadriyatlarimizdan. Ayniqsa, bolajon xalqimizning Yangi yil arafasida kichkintoylarga sovg'a-salom ularishi odatga aylangan. Bu yil ham minglab qorako'zlargaga quvонch va shodlik ularishgan "Prezident archasi" bayram tadbirlariga katta tayyorgarlik ko'rildi.

Qalblarga quvonch ularashgan nur



Qayoqqa qaramang, bayram shukuh hukmron. Ko'chalarda turli-tuman chiroqlar yog'dusi ko'zni qamashtirib, barchaga bayram kayfiyatini bag'ishlamoqda. "Turkiston" saroyiga kirgan kishi o'zini eraklar olamiga tushib qolgandek his etidi. Bayramona bezatilgan saroy kiraverishida rang-barang chiroqlar binal bezatilgan arachalar, foye shiftiga ilingan qorparchalar kumush qish manzarasini ko'z oldingizga keltiradi. Ulkan archa atrofida jam bo'lgan Qorbozo-yu Qorqiz, el tanigan xonanda va sozandalar bolalarga bayramona quvонch ularashadi.

3-bet

O'ZBEKISTON PREZIDENTINING TURKIYA PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULQOTTI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-dekabr kuni Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'on bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari kirib kelayotgan Yangi yil bilan birlarini samimiy qutladilar.

2019-yil mamlakatlarimiz o'tasidagi do'stik va strategik sherlik munosabatlari mustahkamlashda muhim bo'lgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga to'la huquqla a'zo sifatida kirishining tarixiy ahamiyati qayd etildi.

Turli darajadagi aloqalar sezilarli faollashdi, o'zar manfaatlari savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik izchil rivojanmoqda, istiqbolli qo'shma loyihalar amalga oshirilib, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar almashinuvlar kengaymoqda.

Muloqotda Prezidentlar bo'lajak oly darajadagi uchrashuvlar siyosat, iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari, turizm, ta'lim, sog'iqliqi saqlash va boshqa yo'naliishlardagi o'zar manfaatlari sheriklikni yanada mustahkamash uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'ZA

SAMIMIY OUTLOVLAR

Yangi — 2020-yil kirib kelishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, hukumatlar va parlamentlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlaridan Prezidentimizga sihat-salomatlik, yangi muvaffaqiyatlar va baxt-saodat, O'zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnak izhor etilgan samimiy outlovlard kelmoqda.

Quyidagilar o'z tabriklarini yo'llagan:

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin;

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin;

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Gutterish;

Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboson Nursulton Nazarboev;

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev;

Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov;

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon;

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov;

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko;

Ozbarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev;

Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe;

Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In;

Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani;

Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoni;

Polsha Respublikasi Prezidenti Anjey Duda;

Vengriya Prezidenti Yanosh Ader;

Sloveniya Respublikasi Prezidenti Borut Pavor;

Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattah as-Sisi;

Iordaniya Qiroli Abdulla II;

Daniya Qirolichasi Margret II;

Xitoy Xalq Respublikasi Raisining o'rinnbosari Van Sishan;

Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisi Dmitriy Medvedev;

Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Bosh vaziri Li Ketsyan;

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban;

Kanada General-gubernatori Jyuli Peyett;

Yangi Zelandiya General-gubernatori Petsi Reddi;

Afg'oniston Islom Respublikasi Hukumati Ijrochi raisi Abdulla Abdulla;

Yangi Zelandiya Bosh vaziri Jasinda Ardern;

Rossiya Federatsiyasi Federal Majlis Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko;

Butun xitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisi Li Chjanshu;

Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o'rinnbosari, ichki ishlar vaziri Sayf bin Zoid Ol Nahayon;

Xalqaro olimpiya qo'mitasi prezidenti Tomas Bax;

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ijroiya qo'mitasi raisi — Ijrochi kotibi Sergey Lebedev;

Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) Bosh kotibi Yens Stoltenberg;

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi Bosh kotibi Bag'dat Amreyev.

Outlovlard kelishi davom etmoqda.

RAQAMLAR EMAS, NATIJA MUHIM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning oxirgi ish kunida parlament palatalari rahbarlari, hukumat a'zolari, vazirlilik va idoralar muutasaddilari bilan uchrashib, yil yakunlarini sarhisob qildi, 2020-yilgi muhim vazafalarni belgilab berdi.

Mamlakatimizda barcha sohalarda dadil islohotlar amalga oshirilmoxda. Iqtisodiyot tarmoqlarini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, hududlar imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarib, aholi farvonligini oshirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Tashabbus va takliflar qo'llab-quvvatlanib, moliyaviy, tashkiloy jihatlari hal qilib berilmoxda.

Bunday keng ko'lamli ishlar natijasi har bir jabhada sezilyapti. Ilgari ilosizsizde tuyulgan masalalarga yechim topilmoxda. Eng muhimi, xalqning turmush sharoiti yaxshilanmoqda, oddiy odamlar davlatdan, hayotdan rozi bo'lyapti.

Yurtimizdagi o'zgarishlarni jahon hamjamiyati ham tan olmoqda. Xususan, dunyodagi eng nufuzli nashrlardan bira bo'lgan Buyuk Britaniyaning "The Economist" jurnali O'zbekistoni 2019-yilda eng jadal islohotlarni amalga oshirgan davlat — "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi.

Shuningdek, Jahon bankingining 2019-yilgi "Biznes yuritish" reytingida ham O'zbekiston eng ilg'or islohotchi mamlakatlar qatoridan o'rind oldi.

Bunday muvaffaqiyatlar 2020-yilda ham davomli bo'lishi, yanada yaxshilanishi uchun tarmoqlar va hududlarning rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni bajarib, eng yuqori natijalarni ta'minlash lozim.

Davlatimiz rahbari bugun erishilgan natijalar hali marra emasligini, oldimida aholining turmush sharoitini yanada yaxshilash, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, imkoniyatlardan keng-

roq foydalish uchun 2020-yil sinov yili bo'lishini ta'kidladi.

Yig'ilishda 2019-yilda yo'l qo'yilgan xatolardan to'g'ri xulosa chiqarib, 2020-yil belgilangan chora-tadbirlarini amalga oshirish, mas'ul ijrochilar va muddatlarini belgilab olish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, bevosita joylarga borib, ularning ijrosini tashkil qilish va doimiy nazoratni ta'minlash kerakligi qayd etildi.

Vazirlar Mahkamasi ijo hokimiyati faoliyatini samarali tashkil etib, har bir vazirlilik, davlat qo'mitasi va boshqa idoralarning 2020-yil har choragi uchun faoliyat samaradorligi ko'sratikchilarini ishlab chiqishi va ijrosini qat'iy nazoratga oshishi zarurligi ta'kidlandi.

Investitsiya dasturidagi infratuzilma bo'ektarlari qurish va ishga tushirish bo'yicha yangi tizim joriy etish, transport, ayniqsa, temir yo'l va aviasiya sohasida boshlangan islohotlarni jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Qurilish-pudrat va loyiha bozorini tartibga solish, bu bozorda erkin raqobat muhitini va zamonaliv shaharsozlik me'yorlarini joriy etish, qurilishni arzonlashtirish bo'yicha topshirilgan berildi. Shu bilan birga, ichimlik suvi, issiqlik ta'minoti sohasidagi dolzorlarning qurishini amalga oshirish zarurligi qayd etildi.

Makroqtisodiy qarbarorlikni ta'minlash, inflatsiyani pasaytirish, narx-navomi shakkllantirishni to'liq bozor munosabatlar-

iga o'tkazish, erkin raqobat muhitini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va xarajatlarni karmaytirish orqali ruzgar-navonning keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Bank sohasidagi islohotlarni davom ettirish, quylay va sifatlari bank xizmatlarini kengaytirish ham muhimligi ta'kidlandi.

Xalqimizning tadbirkorlik tashabbuslarini oshirish, boqimandalik kayfiyatidan xalos etish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda quylay biznes muhitini yaratish, jumladan, soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish, axborot texnologiyalarini keng qo'llash va inson omilini maksimal qisqartirish zarurligi ta'kidlandi.

Tashqi savdo va investitsiya borasida ishlarni samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va xorijiy kreditlarni samarali ishlash, ularni aniq natija beradigan loyihalarga yo'naltirish, investorlar bilan manzilli ishlashni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha topshirilgan berildi.

Shuningdek, xorijiy tashriflar chog'iда erishilgan kelishuvlar va loyihamoni amalga oshirish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil etib, aniq natjalarni ta'minlash zarurligi qayd etildi.

Iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini oshirish, eksportning tarkibi va geografiyasini diversifikasiya qilish, yangi bozorlarga chiqish uchun tashqi savdoni tubdan takomillashtirish talab etiladi. Bojxona, standartlashtirish, karantin kabi sohalarni isloh qilish, ularni tadbirkoriga ko'makchiga aylantirishni taqozo etadi.

Yig'ilishda ta'lim, sog'iqliqi saqlash, turizm va bozqa ijtimoiy sohalardagi is-

lohotlarni izchil davom ettirish yuzasidan aniq topshirilqlar berildi.

Kelasi yilda turistlar oqimini 7,5 milionga yetkazish va xizmatlar eksportini 1,5 milliard dollarдан oshirish bu sohadagi eng ustuvor vazifaligi ko'rsatib o'tildi.

Yoshlarni, ayniqsa, qizlarni oilayivi hayotga tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi qayd etildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, oila oldidagi mas'uliyatini anglash, psixologik tayyorgarlik va oiladagi munosabatlarni to'g'ri o'rnatish, oilada sog'lon muhitni yaratish zarur.

Agrosanoat majmuiga kiruvchi tarmoq va soha rahbarlari uchun Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljalangan strategiyasi ijrosini ta'minlash kelasi yil uchun eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Bunda paxta, g'alla, sholi klasterlariga zarur sharoitlar yaratish, yangi tizimda yuzaga keladigan muammolarni muntazam tahlil qilish, ularni bartaraf qilish lozimligi qayd etildi.

Shuningdek, yig'ilishda neft-gaz, kimyo tarmoqlari, energetikani rivojlantirish, ushbu sohalarga xususiy sektor va investitsiyalarni faol jaib qilish, xomashyo qazib olishish bo'yicha vazifalarini ta'kidladi.

Shuningdek, xalqaro belgilangan topshirilqlarni to'liq va sifatlari amalga oshirish uchun baracha rahbarlar o'z tizimida quyiga tushib, xodimlar va resurslarni maksimal darajada safarbar qilishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz tomonidan ko'tarilgan masalalar yuzasidan Oly Majlis Senatasi Raisi va Qonunchilik palatasiga Spikeri, Bosh vazir va hukumat a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari so'za chiqib, berilgan topshirilqlarni sifatlari bajarish bo'yicha sohalarda tizimli ishlarni yo'lg'a qo'yishlarini ta'kidladilar.

O'ZA

Prezident archasi

Qalblarga quvonch ularashgan nur



(Davomi. Boshi 1-betda.)

Respublikamizning barcha hududida bo'lib o'tayotgan "Prezident archasi" bayram tadbirlarida Mehrionlik uylari va Bolalar shaharchalarining 2576, "SOS — bolalar mahallasi"ning 202 nafar, Bolalar uyining 596, Oilaviy bolalar uyining 8, Muruvvat uylarining 1851 nafar tarbiyalanuvchisi, shuningdek, mahallalardagi ota-onasining qaramog'iidan mahrum bo'lgan 3-15 yoshli 4704 nafar bola hamda yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida qurbon bo'lgan Ichki ishlari, Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Bosh prokuratura va Bojxona qo'mitasi xodimlarining 425 nafar farzandi ishtirok etyapdi.

"Turkiston" saroyida bo'lib o'tgan "Prezident archasi" bayram tadbirda "Tomosha" bolalar ijodiy studiyasi tomonidan "Biz taratgan nur" nomli sahnalaştirilgan musiqiy dastur namoyish etildi. Ertak manzarasini eslatuvchi sahnada dastlab Qorbobo va Qorqiz paydo bo'ldi.

"Mo'jizalar maktabi" o'quvchilar ustozi ko'magida qushlar va boshqa jonivorlarga ozor bermaslik kerakligi, kitob o'qish, bilim olish insomni ezzuglikka yetaklashini anglab yetadi. Bu yo'lida ularga Qor malikasi xalal beradi, ustozini o'g'irlab, bolalar yuragini muzlatib qo'yadi. Biroq bilim va zukkoliq yordamida bolalar o'z holiga qaytib, turli sinov va mashaqqatlarni yengib, ustozini tutqunlikdan ozod qiladi.

Sahna ko'rinishi yakunida barcha qahramonlar ezgulikning g'alabasiiga guvoh bo'ladi. "Tomosha" guruhi badiyi rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nodira Qurbonova tomonidan sahnalaştirilgan musiqiy dasturning mazmuni ilm olishga qaratilgani kishini xursand qiladi.

Dilshod KENJAYEV, Xalq ta'limi vaziri o'rinnbosari:

— Har yili bolajonlarga e'tibor

va g'amxo'rlik namunasi bo'lgan "Prezident archasi" bayram tadbirlari respublikamizning barcha hududida bayramona ruhda o'tkaziladi. Bu yil ham tadbir shodiyonalari 29-dekabr kuni respublikamizning 14 ta hududida boshlandi. Bugun poytaxting ayni markazidagi "Turkiston" saroyida bo'lib o'tayotgan bayramda bolajonlar "Biz taratgan nur" nomli spektaklni tomosha qilishi. Bu spektaklga tayyorlarlik ko'rish jarayonida asosiy e'tibor bolalarni bilim olishga qiziqtirish va kitob o'qishga undashga qaratildi.

Tadbirda qatnashayotgan bolalar uchun Prezident sovg'ralari tayyorlanan. Bu yil ham 11 ming dona Prezident sovg'asi tayyorlanib, joylarga yetkazildi. Bugun barcha hududlarda hokimlar boshchiligidagi yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, Vatan sarhadlarini himoya qilish vaqtida halok bo'lgan yurdoshlarimizning farzandlariga sovg'alar beriladi. Sovg'alar tarkibini tuzishda, birinchi navbatda, O'zbekistonda bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlar, korxonalarimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatlari mahsulotlarga e'tibor qaratdik. Shu bois sovg'ani yurtimizda ishlab chiqarilgan shirinliklari bilan to'ldirdik. Bu yil ilk bora sovg'a tarkibiga shaxmat qo'shildi. Bu bolalarning aqlini charxlashga, sport-

ga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Yumshoq o'yinchoq va Prezident sovg'asi solingen idish har yili qattiq qog'ozdan qutti shaklida tayyorlanardi. Bu yilgi Prezident sovg'asining g'ilofi qopchiq tarzida ishlandi. Bola sovg'ani iste'mol qilib bo'lgach, qopchiqdandan bezmalol jismoniy tarbiya darslarida foydalaniishi mumkin.

Archa atrofida raqsga tushayotgan bolajonlar bilan tanishamiz.

— Men SOS — bolalar mahallasidan keldim, — deydi qosh-ko'zlar qop-qora, kulib turgan bolakay. 9 yoshli Ozodbek Yusupovning zavqi ichiga sig'may, opasi — 12 yoshli Ozoda Yusupova bilan raqs tushadi. Yoniida ularga havas bilan tikilib turgan qizaloq esa o'zini 30-Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Aziza Yegizboyeva deya tanishtiradi.

— Har yili an'anaga aylangan "Prezident archasi" bayram tadbirdi bilan intiqlik bilan kutishadi.



Katta bezatilgan archa atrofida ertak qahramonlari bilan bayramona ruhda bayramni kutib olamiz, — deydi Yashnobod tumanidagi 30-Mehribonlik uyi direktori Feruza Usmonxo'jayeva. — Garchi bolajonlar o'z oilasi, ota-onasi bag'rida bo'limasa ham birgalikda,

bir oila bo'lib bayramni yuqori kayfiyatda kutib olamiz. Oxirgi paytlarda Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, besh tashabbus doirasida yoshlarga qaratilayotgan e'tibor tufayli 2019-yili Mehribonlik uymizda ham sport maydonchasi barpo etildi, turli to'g'araklar faoliyatini yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda Mehribonlik uyida imkoniyati cheklangan 96 nafar bola tarbiyalanyapti.

Bayram tadbirdi so'ngida "Prezident archasi — istiqlol tumorchasi", deya boshlanuvchi qo'shiqni barcha jo'rovoz bo'lib, baralla aytdi. Shu tarzda mehr va e'tiborga hammadan ko'ra muhtoj bolajonlar qalbini quvonchga to'dirgan "Prezident archasi" bayram tadbirdiga yakun yasaldi.

Bayram hamon yurtimizning har bir go'shasida, mahalla-yu ko'chalarda davom etmoqda.

Nazokat XOLMETOVA,
"Ma'rifat" muxbirini



Oliy ta'lif: 2020-yili nima kutilmoqda?



Oldindagi hayot uchun reja va maqsadlar tuzish hamda shu asosda qadam tashlash nafaqat inson uchun, balki biror sistema yoki tashkilot uchun ham juda foydalidir. Olaylik, oliy ta'lif tizimi. O'tgan yilda bir qancha yangi universitetlar, xorijiy va mahalliy universitet filiallari ochilganiga qaramay, boshlangan yilda ham bu jarayon to'xtamaydi. Keling, ularning eng asosiyalariga ga to'xtalsak.

Toshkent davlat stomatologiya instituti Qozog'iston-da qo'shma fakultet ochaindi. Bu borada Toshkent shahrida universitetdagi filialini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishgan. Mazkur kelishuvga ko'ra, 2020-2021-o'quv yilidan Janubiy Qozog'iston tibbiyot akademiyasida faoliyatini boshlaydi va ta'lif jarayoni kredit — modul tizimi asosida olib boriladi. Kelgusida hamkorlik doirasida institut pedagoglari Janubiy Qozog'iston tibbiyot akademiyasida pedagoglari uchun mahorat darslari o'tishi, o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha uslubiy yordam berishi, shuningdek, talabalarning ham o'quv-ilmiy dasturlarda ishtirok

etishi ko'zda tutilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Shinxan universiteti (Koreya Respublikasi) bilan Toshkent shahrida universitetning filialini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishgan. Mazkur kelishuvga ko'ra, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab Toshkent shahrida Shinxan universiteti filiali ish boshlaydi. Birinchi bosqichda universitetda quyidagi ta'lif yo'nalishlarida kadrlar tayyorlanadi:

- hamshiralik ishi;
- xalqaro turizm menejmenti;
- yangi to'qimachilik materiallari texnologiyasi.

Toshkent shahridagi Shinxan universitetida dastlab o'zbekistonlik yoshlar tahsil oladi. Keyinchalik universitetga qo'shni davlatlar, xususan, markaziy osiyolik yoshlarni ham qabul qilish choralar ko'rildi.

Kelgusi yili yurtimizda Ros-sianing yana 3 ta oliy ta'lif muassasasi filiali ochilishi re-jalashitirilgan. Ular orasida Astraxan davlat texnika universiteti va Sankt-Peterburg tog' universiteti ham bor. Bundan tashqari, Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti, Moskva arxitektura universiteti va Pushkin nomidagi rus

tili instituti filiallari ham ochilishi mumkin.

Shuningdek, 2020-yilda Samarqand davlat chet tillar institutida jurnalistika fakultetini ochish, iqtisodiyot tarmoqlarining talablari asosida 2 ta yangi ta'lif yo'nalishi va 1 ta yangi magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorchashishga qo'yilishi rejalashitirilgan.

Ochilmay qolgan filiallar

2019-2020-o'quv yilida Toshkentda Janubiy Koreyaning Xalqaro ayollar universiteti (Kyung-in Women's University) filiali ochilishi ko'zda tutilgan edi. Bu to'g'rida 2019-yil 20-aprel kuni O'zbekiston Oliy

va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda "O'zto'qimachiliksavdo" uyushmasi o'rtasida universitet ochishni ko'zda tutuvchi memorandum imzolangan. Yangi universitetda to'qimachilik, dizayn, moda, aviatsiya va turizm, go'zallik sanoati, sog'liqi saqlash va koreyashunoslik yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlanishi rejalashitirilgan.

Ma'lumot o'mida aytish kerakki, Kyung-in Women's University Janubiy Koreyadagi xalqaro almashinuv dasturiga ega davlat oliy ta'lif muassasasi bo'lib, unda 300 nafradan ortiq o'qituvchilar faoliyat

ko'rsatadi, talabalar esa 2000 nafradan ortiq. Toshkentda mazkur universitet filialini ochish to'g'risidagi kelishuvga Janubiy Koreya prezidenti Mun Chje Inning O'zbekistonga davlat dashrifi doirasida erishilgan edi.

Samarqandda Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti filiali ham ochilmay qoldi. Vaholanki, 2019-yil 8-may kuni Prezidentimiz tomonidan "Samarqand shahrida "Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti" federal davlat budgeti oliy ta'lif muassasasining filialini tashkil etish to'g'risida"gi qaror imzolangan edi.

Xorazmda esa Malayziya universiteti filiali ochilishi kerak edi. Malayziya texnologiya universitetining ("Universiti Teknologi Malaysia" — UTM) bakalavriat va magistratura dasturlari bo'yicha filialida injining, axborot texnologiyalari, fundamental fanlar va menejment yo'nalishlari bo'yicha ta'lif beriladi, deya xabar qilingan edi.

Xorazm viloyat hokimligi va universitet rektori bilan uchrashuv davomida professor-o'qituvchilar tarkibining malakasini oshirish va talabalar almashish sohasida hamkorlik qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"



ishlab chiqishga kelishib olin-gan. Shuningdek, Xorazm viloyatidagi tegishli oliy ta'lif muassasasi negizida franchizing modeli bo'yicha Malayziya oliy ta'lif muassasasi das-turlarini joriy etish, kelgusida UTM filialini ochish to'g'risida bitim imzolangan edi.

Nima ham derdik, maqola avvalida aytigan reja va maqsad xususida yana bir xulosaga kelish mumkin: biror reja tuzishdan oldin uni shu yil amalga oshira olishingizga ko'zingiz yetsin. Hech bo'lmaganda, bor kuchingiz bilan harakat qiling. Vazirlik yoki tashkilot uchun aytadi-gan bo'lsak, yangi filialarning ochilmay qolganini quyidagicha izohlash mumkin: yo ularning zimmasiga bir yil uchun juda ko'p vazifa yuklatilgan yoki shunchaki ulgurilmagan!

Istardikki, biror yangi universitet yoki filial ochish taklifini berishdan oldin mas'ul mutasaddilar shu yo'nalishni ochishga haqiqatan ham ehtiyoj sezilyaptimi, uni yo'iga qo'yish uchun moddiy-teknik baza yetarlimi, shu yo'nalishda ta'lif beradigan kadrlar bormi kabi savollarga javob izlasalar, bar-cha uchun foydali bo'lar edi.

**Sohiba MULLAYEVA,
"Ma'rifat" mexbirasi**



Ilm — innovatsiya

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini professor-o'qituvchilari Kattaqo'rg'on iqtisodiyot kollejida "Ilmdan boshqa najot yo'q" mavzusida mahorat darslari o'tdi.

Mashg'ulotlarda professor-o'qituvchilar hamda kollej o'qituvchi va o'quvchilar ta'lif sohasidagi o'zgarishlar, muammo va kamchiliklar yuzasidan fikr almashdi. Dotsent E.Shavqiyev, iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o'qituvchi B.Mardonov o'quvchilarga O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishida ta'limming o'rniga katta ekanini muhim ma'lumatlar bilan tushuntirdi. O'quvchilarni innovatsion fikrlashga o'rgatish, ularning qiziqishla-

rini rag'bataltirish borasida o'qituvchilarga tavsiyalar berildi.

Tabiiy resurslar cheklangan sharoitda aholining ehtiyoji faqatgina innovatsion yo'il bilan etilishi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum, dedi dotsent E.Shavqiyev. — Rivojlangan mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotining 70–90 foizi aynan innovatsiyani rivojlantirish hisobiga yaratilgan. Innovatsiya — bu ilm. Ilmsiz innovatsiya bo'lmaydi! Shuning uchun yoshlarning ilm egallashi niyoyatda zarur, usiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi.

Mahorat darsi yakunida o'quvchilar ni qiziqirgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkazildi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarga kitoblar ulashildi.

Bahodir MARDONOV



Darslarda amaliy mashg'ulotning o'rni

Biologiya fanidan o'tilgan darslarni mustahkamlash va mavzularni o'quvchilar ongiga chuqur singdirishda amaliy mashg'ulotlarning o'rni katta.

Shu bois ham amaliy mashg'ulotlarning ta'sirchanligini oshirishga alohida e'tibor qarataman. Gohida amaliy tarzda bajarishning imkoniy bo'lmaganda mashg'ulotlarni virtual laboratoriya sifatida o'taman. Bunda mashg'ulotlar kompyuter va videoprojektor yordamida slaydlarni ekranda ko'rsatish orqali bajariladi.

Bu usul o'quvchilarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasini mustahkamlaydi.



O'quvchilarining biologiya fanidan olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirishda bu kabi tajribalar qo'l keladi. Qolaversa, virtual laboratoriya mashg'ulotlari o'g'il-qizlar qiziqishini kuchaytirib, mustaqil ravishda amaliy mashg'ulotlarni bajarishiga yordam bermoqda.

**Lobar ISMOILOVA,
Jizzax shahridagi
29-maktab o'qituvchisi**

Islohot va samara

"Zamonaviy maktab"lar qanday bo'ladi?



Har qanday yurting kelajagi yorug'ligini uning maktablariga qarab bilish mumkin. Zero, bu maskanda mamlakatning istiqbolini hal qiluvchi yangi avlod kamolga yetadi. Maktablarimizda o'quvchilarning har tomonloma chuchur bilim olishi uchun sharoit yetarlimi? Bilim berish darajasi qanday? Bu savollar davrimizning eng dolzarb masalasi. Yurtimizda maktablarning shart-sharoiti, moddiy-texnik bazasini yaxshilash borasida qator davlat dasturlari amalga oshirilyapti: bosqichma-bosqich yangi maktablar qurildi, mavjudlari rekonstruksiya qilindi, ta'mirlandi. 2019-yilning 26-noyabr kuni Prezidentimiz tomonidan "Zamonaviy maktab"lami tashkil etish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Bu keng jamoatchilikda endi yurtimizda yangi davr maktablari paydo bo'ladi, degan umid uyg'otdi. Mazkur qaror mazmun-mohiyati xususida kengroq ma'lumot olish maqsadida xalq ta'llimi vazirligining xalq ta'llimi muassasalarini quresh, ta'mirlash va jihozlashni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari Eldor Tojiboyev bilan suhbattashdik.

— Avvalo, ushbu qarorning maq-sadi, mazmun-mohiyati bilan kengroq tanishitsangiz.

— Qabul qilingan hujjat mamlakatimizda yangi turdag'i umumta'lum muassasalarini barpo etish va muqaddam qurilgan binolarni bosqichma-bosqich zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan. Qaror asosida kelasi uch yil davomida quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va ta'mirlanadigan maktablar ro'yxati tasdiqlandi. Uch yil davomida bu maqsadlarga deyarli 4,1 trln so'm mablag' yo'naltirish rejalahshtirilgan.

2020-yilning 1-martiga qadar xorijiy tajriba va mamlakatning tabbiy iqlim sharoitlariga mos, ekologik toza materiallar va energiyaning muqobil manbalari, energiya tejovchi hamda ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo'llashni nazarda tutuvchi "Zamonaviy maktab"larni quresh va rekonstruksiya qilishning namunaviy loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi topshirildi.

Shuningdek, 2020-yilning 1-martiga qadar umumiy o'rta ta'llim muassasalarini zamonaviy mebel va jihozlar, o'quv-laboratoriya uskunalarini, o'quv-uslubiy materiallarni, kompyuter va multimedia hamda videokuzatuv vositalari bilan ta'minlashning yangi me'yorlarini ishlab chiqiladi.

— Qaror qabul qilinishi oldidan respublikadagi barcha maktablarda-gi holat o'rganib chiqildimi? Ahvol va mavjud xulosalar qanday edi?

— Ushbu qarorni ishlab chiqishdan oldin respublikadagi barcha maktablarning moddiy-texnik ta'minoti, holati joylarga chiqib o'rganildi. Natijada 3 ming(30 foiz)dan ortiq maktablar ta'mortalabligi ma'lum bo'ldi.

Ta'kidlaganimdek, qaror asosida 2020-2022-yillarda "Zamonaviy maktab" mezonlari asosida umumta'lum muassasalarini barpo etish dasturi va umumta'lum muassasalarini yangidan quresh, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha dasturning asosiy parametrlari tasdiqlandi.

Dastur doirasida 48 ta yangi maktab qurildi, 452 tasi rekonstruksiya qilinadi, 299 tasi mukammal ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga keltiriladi. 796 ta ta'llim dargohi 241 mln so'm hisobiga yangi o'quv mebellari bilan jihozlanadi. Shuningdek, ushbu dastur 2020-2022-yillar-dagi Investitsiya dasturlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilanganligi sababli qaror ilovalaridagi maktablar soni ko'payishi kutilmoga. Shunga ko'ra, 2020-2022-yillar davomida dasturga kiritilgan maktablar soni mingdan ort-moqda. Xususan, 76 ta yangi maktab qurilib, buning natijasida 32449 ta yangi o'quv o'mi, 2400 ga yaqin ish o'mi yaratiladi. 535 ta maktab rekonstruksiya qilinib, ularda 212329 ta yangi o'quv o'mi yaratiladi. Mazkur maktablarning qamrov koeffisiyenti 1-navbatga tushadi. 411 ta maktab mukammal ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga keltiriladi. Shuningdek, mingdan ortiq maktablar 457,1 mln so'm hisobiga yangi zamonaviy o'quv jihozlarini bilan ta'minlanadi.

Jami 1022 maktab qamrab olinalyotgan bo'lsa, ularning 196 tasi shahar, 826 tasi qishloq va olis hududlarda joylashgan maktablardir. Bundan ko'rinish turibdiki, qishloq joylardagi maktablar ko'proq qamrab olingan bo'lib, maqsad qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi qisqarishiga erishishdir.

— Zamonaviy maktab shart-sharoitlari va ta'llim sifati bo'yicha minimal talablarga javob berishi kerak. Maktablarda yetarli o'quv xonalari, texnika va jihozlar bo'lishi lozim. O'qituvchilar ham bilimli bo'lishi, maktabda yaratilgan sharoitlardan to'liq foydalangan holda bolalarga puxta bilim berishi kerak. Zamonaviy maktabda darsdan tashqari to'garaklar tashkil etilishi va bola muvaffaqiyatlarga erishishi uchun kerakli bilimlar berilishi zarur.

Bundan tashqari, qarorda yana bir muhim topshiriq belgilanmoqda. Unga ko'ra, qaror manzilli ro'yxatlarida ko'zda tutilmagan, biroq moddiy-texnik bazasi nochor bo'lgan maktablarni "Zamonaviy maktab" darajasiga keltirish uchun xalqaro moliya institutlarining grant va kredit mablag'larini jaib qilish topshirilgan. Bu nima degani? Yaqin uch yilda nafaqat respublika budgetidan ajaratilgan mablag'lar hisobidan, balki xalqaro moliya institutlarining grant va kredit mablag'larini jaib qilish orqali bundan ham ko'proq maktablarda "Zamonaviy maktab" namunaviy loyihalari va jihozlash me'yorlari asosida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

— Xalqaro va milliy mezonlarga javob beradigan zamonaviy maktab sizningcha qanday bo'ladi?

— Zamonaviy maktab shart-sharoitlari va ta'llim sifati bo'yicha minimal talablarga javob berishi kerak. Maktablarda yetarli o'quv xonalari, texnika va jihozlar bo'lishi lozim. O'qituvchilar ham bilimli bo'lishi, maktabda yaratilgan sharoitlardan to'liq foydalangan holda bolalarga puxta bilim berishi kerak. Zamonaviy maktabda darsdan tashqari to'garaklar tashkil etilishi va bola muvaffaqiyatlarga erishishi uchun kerakli bilimlar berilishi zarur.

Hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan umumta'lum muassasalarini faoliyatini "Zamonaviy maktab" mezonlari asosida baholash shartlari va tartibi ishlab chiqilmoqda. Mazkur hujjatda zamonaviy maktablarga qo'yiladigan talablar aniq qilib belgilanadi.

2021-yildan boshlab respublikadagi moddiy-texnik ta'minoti bilan bir qatorda ta'llim berish sifati yuqori darajada bo'lgan, tasdiqlangan baholash mezonlari javob beradigan umumta'lum muassasalariga "Zamonaviy maktab" maqomi (statusi) beriladi. "Zamonaviy maktab" muvofiqlik sertifikatini oлган maktablarning direktori, o'qituvchi va o'quvchilarini moddiy-ma'naviy rag'bantirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bu o'z navbatida barcha maktablar pedagogik jamoasini "Zamonaviy maktab" maqomini olish uchun bir jama bo'lib harakat qilishga undaydi.

— 2004-2009-yillarda maktab ta'llimi rivojlantirish davlat umum-milliy dasturi doirasida ham mamlakatimizda ko'plab maktablar kapital

ta'mirlanib, rekonstruksiya qilinang edi. Undan keyin Investitsiya, "Obod mahalla", "Obod qishloq" dasturlari bo'yicha ham yangi, zamonaviy maktablar qurildi. Bu dasturlar bo'yicha respublikadagi maktablarni qamrab olish darajasi qanday bo'lgan edi? Va bu dastur doirasida amalga oshirilgan ishlardan "Zamonaviy maktab" loyihasi doirasida qilinadigan ishlarning qanday farqi bor?

Davlat dasturlari doirasida 2004-2019-yillar mobaynida 9454 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlarga o'tgan 15 yil davomida jami 5,7 trln so'm mablag' sarflangan.

Tahillar shuni ko'rsatdiki, o'tgan davr mobaynida 4200 dan ortiq maktabda rekonstruksiya (qo'shimcha bino qurish) ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, ushbu maqsadda ajaratilgan mablag'lar faqatgina xomg'isht, paxsa, yog'och va loydan qurilgan maktablarga namunaviy loyiha asosida o'quv binolari qurishga yo'naltirilgan. Shuningdek, maktablarda o'quvchi soni oshib ketishi natijasida qo'shimcha binolar qurilgan. Biroq, asosiy muammo shundaki, 2004-2019-yillar mobaynida ajaratilgan mablag'lar faqatgina o'quv binosining sinfxonalar uchun sarflangan. Maktab faollar zali, kutubxonasi, oshxonasi, qiz va o'g'il bolalar uchun alohida o'quv mehnat xonalari, o'qituvchilar, psixolog xonalari va boshqa qo'shimcha binolar deyarli qurilmagan.

Mahalliy davlat hokimiyat organlari tomonidan "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturlari doirasida ham ko'plab maktablarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Biroq bu ishlar joylarda turlicha bajarilyapti. Ba'zilarida faqatgina qurilib, jihozlash ko'zda tutilsandan qolmoqda.

Shu munosabat bilan ushbu qarorning ahamiyatli joyi shundaki, 2020-yildan boshlab moliyalashtirish manbayidan qat'i nazar, respublikaning barcha hudo-dida maktablarni qurish-ta'mirlashda ularni to'liq zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash qat'iy belgilanmoqda. "Zamonaviy maktablar"ning xalqaro talablarga muvofiq ilg'or arxitektura yechimlari va energiyatejamkor texnologiyalar asosida qurilib, jihozlanishiha alohida e'tibor qaratiladi. Shundan kelib chiqib, Xalq ta'llimi vazirligida Qurilish vazirligi bilan hamkorlikda 2020-yilning 1-martiga qadar xorijiy tajriba va mamlakatning tabbiy iqlim sharoitlariga mos, ekologik toza materiallar va energiyaning muqobil manbalari, ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlarini qo'llashni nazarda tutuvchi "Zamonaviy maktab"larni quresh va rekonstruksiya qilishning namunaviy loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash topshirildi.

2020-yildan boshlab maktablar ushbu "Zamonaviy maktab" namunaviy loyihasi asosida quriladi va tasdiqlanadigan yangi jihozlash me'yorlariga muvofiq jihozlanadi.

Ziliola MADATOVA
suhbatlashdi.

Geografik uskunalar esa yo'q hisobi. Bunday jihozlar mavjud bo'lsa ham respublikamizdagi barmoq bilan sanarli maktablarda uchraydi.

O'qituvchi minbari

Geografiya fani qanday o'qitilishi kerak?

Geografiya faniga bo'lgan e'tibor oxirgi o'n yillikda nihoyatda susayib ketdi. Buni hatto eng ilg'or maktablarmizda ham ko'rgazmali qurollaming yetishmasligida ko'rish mumkin. Elementar geografik xaritalar, globuslar, fanga oid qo'shimcha adabiyotlar yetishmaydi, ko'plab maktablarmizda mutlaqo yo'q. Darsliklarning ahvoli ham havas qilarli darajada emas. Didaktik materiallar ozligi, darsliklarning qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitilmagani hisobiga geografiyadek qiziqarli fan mashg'uloti o'quvchilarni zeriktiradigan darsga aylandi.

Kuzatuvalrim natijasida shunday xulosaga keldim. Maktablarmizda geografik xaritalardan faqat jahon hamda O'zbekiston siyosiy xaritasi mavjud, xolos. Tabibi va boshqa turdag'i xaritalar ko'zga tashlanmaydi. Markaziyo Osiyo, Yevroosiyo, har bir materik uchun alohida tabiyi va siyosiy xaritalar, jahonning tabiyi xaritalarini hatto kitob do'konlaridan ham topish amrimahol. Globuslar haqida-ku, umuman gapirmasayam bo'ladi. Dunyoning tabiyi geografiyasi tasvirlangan globuslarning sobiq ittifoq davrida chiqqan nusxalarini saqlab qolimmagani bo'lsa, yangilariga ko'zim tushgani yo'q.

Geografik uskunalar esa yo'q hisobi. Bunday jihozlar mavjud bo'lsa ham respublikamizdagi barmoq bilan sanarli maktablarda uchraydi. U ham, menimcha, fidoyi geografik o'qituvchilarimizning mablag'i va tashabbusi bilan keltirilgan. Kutubxonalarimizda geografiyaga oid badiiy adabiyotlar ham juda oz.

Axir Daniel Defoning "Robinzon Kruszoning g'aroyib sarguzashtlari" kitobi, Jyul Vern asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si, Nosir Xisrov, Marko Polo, Xristofor Kolumb, Fernando Magellan, Kabot, Vasko da Gama, Bartolomeu Diash, F.Dreyk, Laperuz, Kruzenshtern va Lazarev, David Livingston, Redyard Kipling, Charlz Darwin, Antuan de Sent-Ekzuperi, Jak Iv Kusto kabi o'nlab, hatto yuzlab buyuk kashfiyotchilar, sayohatchilar, olim-u yozuvchilarga tegishli ma'lumotlar to'plamlari, asarlari bilan kutubxonalarimizni to'ldirsak, bolalarning fanga qiziqishi keskin oshishi aniq.

Fanni o'qitish uslublari esa xuddi boshqa ko'plab fanlar kabi haliyam o'sha-o'sha — primitiv (sodda) uslubda. Videoproyektorlar, ko'rgazmali qurollar va noan'anaviy usullardan faqat ochiq darslarda, fan oyliklarda foydalaniildi. Xullas, hammasi go'yo dekorativ ta'lim, ko'z-ko'z va hisobotlar uchun, xolos.

Geografiya fanini o'qitish jarayonini tubdan o'zgartirish, ko'proq amaliy va tadrijiy yo'nalishga o'tish kerak. Darslar tabiat qo'ynida bevosita tanishuv yo'li bilan olib borilsa, o'quv choraklari oralig'idagi ta'llilda so'lim go'shalar, tog', ko'l, daryo va cho'llarga sayohatlar amalga oshirilsa (tarix, biologiya fanlarini ham uyg'unlashtirish mumkin), tabiat, iqlim, xalq xo'jaligi, iqtisod, transport, infratuzilma va boshqa ko'plab omillarning rivojlanishi, qonuniyatlari bilan o'quvchilarni bevosita tanishtirib borish imkoniyati paydo bo'lardi.

O'quvchilarda tabiat qo'ynida o'zini namunalni tutish, ekologiya, atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakkantirish orqali yoshlarni Vatanimizga muhabbat ruhida tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

O'quvchilarga elementar usullar — qadimgi ajoddalarimiz bilgan oy, quyosh, yulduzlarga qarab vaqt va joyni aniqlash, gugurtsiz olov yoqish, baliq ovlash, ov va mehnat qorollarini yasash, chodir tikish, kompas, termometr, barometr, flyuger, nivelir va boshqa ko'plab geografik o'ichov uskunalarini haqida ma'lumot berish va ulardan foydalanishni o'rgatish kerak, deb hisoblayman. Tabiat, hayvonot va o'simlik dunyosi bilan munosabat, iqlimda kechayotgan jarayonlarni kuzatish va bunda tabiat

qo'ynida o'zini tutishni o'rgatish ham shular jumlasidandir.

Geografiya fani xonalarini jihozlashga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarda, albatta, atlas va yozuvsiz xaritalar bo'lishi tabibi. Lekin sinfonada kamida o'n xil xarita va globuslar bo'lishi shart. Shuningdek, jonli burchaklar tashkil etilishi, gerbariy va maketlar uchun alohida burchak ajratilishi lozim. Buyuk geograf kashfiyotchilar, fanga ulkan hissa qo'shgan odamlar portretlari, ularning sayohatiga oid stendlar, badiy adabiyotlar bilan boyitilgan javonlar, geografiya faniga oid jihoz va uskunalar saqlanadigan shkaflar bo'lsa, nur ustiga nur bo'lardi.

Geografiya fanini sizlar uchun qanday o'tsam qiziqarli bo'ladi, degan salomimga o'quvchilar shunday javob berishdi: "Globus va xaritalar kam, ularni ko'paytirish kerak. Darsliklarni ham unchalik qiziqarli emas, mavzuga oid rasmlar bilan o'ldirish zarur.

Kompyuterlashgan xona faqat informatika uchun, geografiya fani uchun ham kompyuter va Wi-fi dan foydalanish imkoniyati yaratilsa, ko'proq qiziqarli ma'lumotlar, o'yinlar, musobaqlar o'tkazilsa, fanga qiziqish oshardi".

Xulosa sizlardan, hamkasblar!

Ixtiyor ESONOV,
Guliston shahridagi
11-maktab o'qituvchisi

O'qituvchini qo'riqchilikdan ozod eting!

Hammani bayramga yetkazsin! Bayramku yaxshi, lekin ular yaqinlashgani sayin o'qituvchilarining ishi ikki hissa ortadi. Aytaylik, chorak yakuniga yetayotganda o'qituvchi har bir sinfa choraklik nazorat va har bir fan bo'yicha ikki variantda monitoring ishi olishi, choraklik baho chiqarishi, yana ko'plab hisobotlar topshirishi kerak. Shuncha ishdan ortib u Yangi yil, Navro'z umumxalq bayramlari arafasida jamoat xavfsizligini ta'minlashi ham kerak.

Hayronman, qachongacha o'qituvchiga bayramoldi kunlari navbatchilik ro'yxati asosida maktabni qo'riqlash vazifasi yuklatiladi? Axir o'qituvchi kasbiga daxldor bo'lmagan har qanday ishlardan ozod etilishi kerakmasdi!?

Kunduz kuni, ya'ni soat 8:00 dan 20:00 gacha ayol muallimlar, 20:00 dan tong otguncha — 8:00 gacha erkak o'qituvchilarga maktab hududini qo'riqlash vazifa si yuklatilishi qanchalik to'g'ri? Axir ayol o'qituvchilar posbonlikni qanchalik eplaydi, ularning o'zi kech kirganda kimsasiz maktab binosida qolishi xavfli emasmi? Bu muallim-posbonlar maktabni nimadan himoya qiladi? Kutilmagan tahidlardanmi? Agar shunday bo'lsa, o'qituvchining yolg'iz o'zi bunda qanday chora qo'llay oladi? Tirk qalqon bo'ladi?

San'at OBIDOV,
Nurota tumanidagi
36-maktab o'qituvchisi

Qishki ta'til kunlari maktablarda turli fan, sport to'garaklari bilan bir qatorda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tanlovlari ham tashkil etilmoqda.

Ta'tilda 5 tashabbus



Poytaxtimizdagi 12-maktabda "Besh tashabbus—besh imkoniyat" shiori ostida o'tkazilgan tanlovdagi Yunusobod tumanidagi har bir maktabdan jamoalar ishtirok etib kompyuterda matn yozish, slayd tayyorlash, o'qigan kitoblari haqida ma'lumot berish, dasr-tol mol hoshiyasiiga gul tikish, tezkor savol-javob, gisnastika mashqularini bajarish bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Unda "Besh iste'dod" guruhi l-o'rinni egalladi.

Qobiliyatli, zukko o'quvchilarga kitoblar, ustozlari Nigora Alimbekova (98-maktab) Mehrimiso Tursunova (105-maktab), Yulduz Xalilova (122-maktab), Dilfuza Shermuhammedova (288-maktab)ga tuman xalq ta'limi bo'limining "Faxriy yorliq"lari topshirildi.

Bugungi ko'rik-tanlovda tumanimizdagi baracha maktablarning 4-sinf o'quvchilari qatnashib, o'z iste'dodini namoyon etdi, — deydi hakamlar hay'ati a'zosini Ozoda Nurmuhammedova. — Bu esa besh muhim tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot va san'at, sport bo'yicha qobiliyatini aniqlash, ularni qiziqishiga qarab kasb-hunarga yo'naltirish imkonini yaratdi.

Marg'uba QAMBAROVA,
Yunusobod tumanidagi
274-maktab o'qituvchisi

Befarqlikning ham badali bor

Ijtimoiy tarmoqlardan birida tarqalgan xabarga ko'zim tushdi. Chiroqchi tumanida bir o'qituvchi 6-sinf o'quvchisining pirotexnika vositasi ishlatganini ko'rib, bolani o'qituvchilar xonasiga olib bormoqchi bo'lgan. O'quvchi qarshilik qilgan. Natijada o'qituvchi chora qo'llashga majbur bo'ladi.

Ammo pedagog o'quvchini jazolagani uchun o'zi qonun oldida javobgarlikka tortilgan va eng kam ish haqining o'n barobari miqdorida jarimaga tortilgan. Mayli, o'qituvchi bolaga qo'pollik qilgani uchun jazo olibdi, ammo o'quvchining qilmishi-chi? Nega bu masala ochiq qoldi. Mana shunday hotlatlar sababli bugun o'quvchilar hech kimdan qo'rmay, istagan joyida pirotexnika vostasini "paqillatib" yuribdi. Nega ularni ko'rib, ko'rmaganga olyapmiz. Hech bo'lmaganda ota-onasi basolinsi nazorat qilsin. Farzand bu vositalarga pulni qayerdan olyapti? Cho'ntagida nima ko'tarib yuribdi? O'iladagi kattalar befarq bo'lsa, o'qituvchi chora ko'rgani uchun o'zi jazo olsa, bolalarning qo'li dan bu xavfli vositani kim oladi? Menimcha, pirotexnika o'nyayotgan bolalar oldida loqayd o'tib bo'lmaydi. Ulariga bu ishi noto'g'riligini tushuntirish, tushunishni istamasra, jarimaga tortish kerak. Buning uchun hotta ota-onasini ham jarimaga tortish shart, deb o'yayman.

Hozirgi kunda bolalar ham, ota-onalar ham biz o'qigan davrdagidan ancha boshqacha. Kunda-kunora o'qituvchilarining o'quvchilar aybi tufayli jabrlanishi haqida eshitamiz. Biz o'qigan davrda o'quvchi o'qituvchidan hayiqardi. Aybi ota-onasi qulog'iga yetib borishidan qo'rardi. Endi esa... O'qituvchi qachongacha bunday bolalarning xurmacha qiliqlari orqasidan jabr ko'rар ekan-a?

Difuzo SUVONOVA,
Yangiyo'l tumanidagi
42-maktab o'qituvchisi



Tanlagen kasbimiz orqali jamiyatga foydamiz tegsa, artofdagilardan rahmat eshitsak, kamtarona mehnatlarimiz qadrlansa, rag'bat olsak, shu emasmi asl baxt!?



O'qituvchi nimani o'laydi?

Hurmatli mustahariylar, "O'qituvchi nimani o'laydi?" rukni tashkil etilganiga bir yil bo'ldi. Bu davrda faol o'qituvchilarining ta'lum-tarbiya jarayoniga bog'liq bo'lgan eng sara fikr-mulohazalarini takliflarini siz bilan bo'lishdik. Mazarx ruknimiz ko'plab gazetxonlarning e'tiborini tortdi, e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu gal 2019-yilning muhim voqealarini, ta'lum jarayonidagi unutilmas hodisalar haqida bildirilgan fikr-mulohazalar bilan tanishasiz. Eslatib o'tamiz, ushbu ruknida o'tgan yil davomida berib borilgan fikrler "Telegram" messengeridagi "Ma'rifat" mustahariylari. Facebook ijtimoiy tarmog'idagi "O'qituvchi", "Xalq ta'limi xodimlariga" kabi guruhlardan to'plandi. Yangi yilda ham yanada faol bo'lishingizni kutib qolamiz!

"Kitobxon yoshlarni ko'paytiraman"

O'tayotgan yil men uchun juda omadli, fayzli yil bo'ldi. Ham oilaviy hayotimda, ham ish faoliyatimda quvchonli voqealar bo'ldi. 2018-yili "Yosh kitobxon" tanlovida qatashgandim, ammo g'oliblik nasiб etmagandi. Bu yil astoyildi harakatim va intilishim sabab biringchilki qo'sha kiridi va Prezidentimiz sovg'asi — "Spark" avtomashinasi bilan taqdirlandim. Inson bari narsani chin dildan xohlasa va shu maqsadiga yetish yo'li da timinsiz harakat qilsa, albatta niyatiga yetar ekan. Bu faqatgina mening yutug'imi emas, balki ota-onam, ustozlarim, qolaversa, tumminiz yutug'idi. Menga ishonch bildirgancha yaqinlarining ishonchini oqlaganidan shodman. Kitobga mohor belgiligimda paydo bo'lgan. O'quvchilik yillardan kitob yig'ishga qiziqardim. Hozir mo'jazgina shaxsiy kutubxonamda mingdan ziyod turli mavzulardagi adabiyotlar mavjud. Faxrlanib yata olaman, bu kitoblarining hammasini o'qiganman, bular yuragimning bir parchasiga aylangan. 2019-yili Qarshi davlat universitetini magistratura bosqichini muvaffaqiyetli yaksunladim va o'zim o'qigan Konson tumanidagi 15-maktabda ona tili va adabiyot fanidars dars bera boshladim. Hozir onalik ta'tildaman. Yangi yilga yangi mehnun kutyapim. Oldindan rejalaram katta. O'quvchilarga yaxshi ta'lum-tarbiya berish, kitobxon yoshlarni ko'paytirishga hissa qo'shsam deyman. Keyinchalik o'zim tahsil oлgan olyi o'quv yurtida ilmiy ishimni davom ettirish niyatidaman.

Surayyo SHODIYEVA,
"Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining
20—30 yosh toifasida respublika bosqichi g'olib

Unutilmas yil

Foydalil ilmlarni o'rgatuvchilarga dunyodagi jamiyoti narsa, hatto dengizdagi baliglar ham istig'for aytadi", deyildi hadisi sharifda. Bolalarga bilim berishdek mas'uliyati faoliyat turi bilan shug'ullanayotganidan baxtiyormen. 2019-yil mening hayotimda muhim iz qoldirdi. Chunki, yil avvalida Umra safariga borish nasib etdi. Ko'p o'tmay, "Marifat" gazetasining "Faslning eng yaxshi ijodkor" tanlovi "Original biz soatli dars yoki tadbir senariysi" nominatsiyasida g'olib bo'ldim. Tahririyat tomonidan taqdirlandim. Avgust oyida nabiram Prezident maktabiga o'qishqa qabul qilindi. Eng quronvalisi, "O'qituvchi va murabbiylar" kuni arafasida "Mehnat shuhurati" ordeni bilan mukofotlandim. Mana shu emasni, kasbing ortidan baxt topish, shu emasni mehnatlar ro'yobi. Bu hal hammasi emas, o'qituvchi va murabbiylar uchun General Motors kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan aksiya — foizsiz to'lovlar asosida avtokredit berish tashhabusasi asosida "Lacetti" rusumli avtomashina egasi bo'ldim. O'tayotgan yil men va oila a'zolarim uchun chin ma'noda xayril yil bo'ldi. Barcha ta'lum fidoyilariga shunday muvaffaqiyatlar tilayman.

Sharofat TOSHIMIRZAYEVA,
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi
FFIDUMning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Mushtariy muhokamasi

"Ma'rifat" yulduzlari

Tashkil etilganiga bir yil bo'lgan telegram tarmog'idagi "Ma'rifat" mushtariylari" guruhi orqali ko'plab faol, jonkuyar, mahoratl pedagoglar bilan yaqindan tanishdik. Bu ta'limning qaynoq nuqtasiga chucherroq kirib borishimizga xizmat qildi. Guruhimiz bir yil ichida o'z yulduzlarini ham kashf etdi, desak mubolog'a bo'lmas. Zero, ularning o'zlarini ham "Ma'rifat" mushtariylari" guruhiga a'zo bolgach, "Ma'rifat" gazetasini bilan o'z-o'zidan hamkorlik kuchayganini va bu faoliyatlarida ham ijobji o'garishlarga sabab bo'lganini e'tirof etishmoqda. Mana bugun yana ularning dil so'zlariga qulq tutamiz.

Dildor Nurmuhamedova,
Termiz tumanidagi
9-maktab o'qituvchisi:

— "Ma'rifat" gazetasining mushtariylarini jamlagan bu guruh pedagoglik faoliyatimga tom'moda mazmun olib kirdi. Tahririyat jamoasi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ba'zan o'yab qolaman, shu paytgacha tor auditoriya — maktabimiz jamoasi muhitidan kelib chiqib xulosa qilgan ekanmiz. Hozir esa... Mushtariylar guruhidagi ustozlar bilan fikr almashib, ular bilan ta'limga dolzarb mavzularni muhokama qilib, go'yo keng auditoriyada katta jamao bilan ishayotgandek his qilaman o'zimni. Guruh orqali o'matgan hamkorligim natijasida bir yil ichida "Ma'rifat"da 10 ta maqolam va bir qancha ta'limga oid fikr-mulohazalarim chop etildi.

Farida Axboraliyeva,
Zangiota tumanidagi
33-maktab o'qituvchisi:

— O'tgan 2019-yildan minnatdorman, chunki shu yilda men "Ma'rifat" mushtariylari" guruhiga a'zo bo'ldim. Guruh orqali mahoratl ustozlar bilan g'o'yibona tanishdik. O'zimizni qiyinayotgan muammolarni hal qilgan vaqtlarimiz ham bo'ldi. Yil davomida "Ma'rifat"da 10 dan ortiq fikrlerim, 2 ta metodik maqolam chop etildi. 20-dekabr kuni "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'strishining innovatsion usullari" mavzusidagi ishim Respublika ta'lum markazining ilmiy kengashida ko'rib chiqilib, ommalashtirildi. Shu ilmiy kengash a'zolaridan biri o'z fikrini aytayotib "Ma'rifat" gazetasida chiqqan "O'yin ichida ta'lum" maqolam juda manzu bo'lganini, o'z jamoasi bilan darslarda uni qo'llab, yaxshi natijalar olayotganini aytil qoldi. Bunday e'tirofdan juda ham quvondim. Bildimki, sevimli nashrimiz bizga shunchaki axborot beruvchi vosita emas, u faoliyatimizda yursak natijalarga olib chiquvchi, bizni elga tanituvchi, yutuqlar tomon ustozlarni yo'llovchidir.

Gulchehra Ashurova,
Termiz shahridagi 13-maktab
direktorining ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha o'rbinbosari:

— Hayotda aksariyati odamlar amalga oshirgan yaxshiliklari evaziga haqqini to'lashni so'raydi yoki manfaat kutadi. Ammo yaxshiliklari evaziga haq so'ramaydiganlar ham topiladi. ...U

ustozlarni rag'batlantiradi, obro'sini oshiradi, o'qituvchilar taqdiringa befsaq qaramaydi, kasbiy tajriba orttirishiga hissa qo'shadi. Uning maqsadi foyda olish emas, foyda keltirish. Amalga oshirgan yaxshiliklari uchun esa haq talab qilmaydi! Balki haq to'laydi! Bu, shubhaisiz, "Ma'rifat"dir! Mana bir yildirk, "Ma'rifat" tufayli juda ko'p tanlov, musobaqa, bellashuvlarda o'quvchilarim va o'zim g'oliblik shohsusiga ko'tarilib kelyaptim. Sevimli gazetamda bir yil davomida 25 ta fikrim, 4 maqolam nashr etildi. "Ma'rifat" ayrim o'quvchilarim ham tarbiyalidi, desam mubolog'a bo'lmas. Tarbiyas og'ir o'quvchimning "Ma'rifat" kitobxonini" tanlovi g'olib bo'lgandagi taassurotini ko'rsgaz edil! Bu yil "Ma'rifat" bilimdoni"da meni e'tirof etishdi, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019" tanloving respublika bosqichida nominatsiya g'olib bo'ldim, "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida 2-o'ringa sazovor bo'ldim, o'quvchilarim "Odam savdos" ijodiy ishlar tanloving respublika bosqichida 1-o'rin, UNISEF xalqaro bolalar jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tanlovlardan g'olib bo'lishdi. AQSh Davlat departamentining ta'lum va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro tadqiqotlar almashinuv kengashi buyrosi tomonidan o'tkazilgan tanlova dars ishlanmam 1-o'ringa loyiq ko'rildi, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev imzosi bilan yozilgan nishonni Xalq ta'limi vaziri qo'sidan oldim. Bu yutuqlarining barchasiga "Ma'rifat" gazetasida bosh sababchi bo'lganini e'tirof etmaslikning iloji yo'q!

Dilfuza Suvonova,
Yangiyo'l tumanidagi
42-maktab o'qituvchisi:

— Ko'p yillik mehnat faoliyatim davomida "Ma'rifat" gazetasini montazam o'qib boribman-u, ammo hech qachon maqola yozmagan ekanman. Telegram tarmog'i orqali gazeta muxbirini bilan tanishib qoldik, u mening bir masala yuzasidan fikrimni so'radi, fikrimni yozib bo'ldi. U orqali anchagina yutuqlarga erishdim. "O'qituvchi minbari" ruknida ta'lum jarayoniga oid maqolalarim chop etildi. "Texnologiya keraksiz fanni?", "Tashabbusni to'g'ri talqin qilaylik?", "Kashtachilik san'ati", "O'qituvchi innovatsiyadan foydalishni biladimi?" mavzularidagi maqolalarim ko'plab o'qituvchilar o'tasida muhokama qilindi. Fanimizdagi talaygina muammollarga yehim topilishida bu maqolalarning ham qaysidir ma'noda ta'siri bo'ldi, deb o'layman. Zero, "Texnologiya keraksiz fanni?" maqolasida bu fandan necha yillardan buyon darslik yo'qligini yozgan emid. Shukrki, joriy o'quv yilidan texnologiya fanidan ham zamonaviy darsliklar chop etila boshlandi.

Hafiza Rashidova,
Termiz shahridagi
13-maktab
o'qituvchisi:

— "Marifat" mushtariylari" guruhiga a'zo bo'lgach, ish faoliyatim juda kop yangiliklarga boy bo'ldi. U orqali anchagina yutuqlarga erishdim. "O'qituvchi minbari" ruknida ta'lum jarayoniga oid maqolalarim chop etildi. "Texnologiya keraksiz fanni?", "Tashabbusni to'g'ri talqin qilaylik?", "Kashtachilik san'ati", "O'qituvchi innovatsiyadan foydalishni biladimi?" mavzularidagi maqolalarim ko'plab o'qituvchilar o'tasida muhokama qilindi. Fanimizdagi talaygina muammollarga yehim topilishida bu maqolalarning ham qaysidir ma'noda ta'siri bo'ldi, deb o'layman. Zero, "Texnologiya keraksiz fanni?" maqolasida bu fandan necha yillardan buyon darslik yo'qligini yozgan emid. Shukrki, joriy o'quv yilidan texnologiya fanidan ham zamonaviy darsliklar chop etila boshlandi.

Madina Baxshilloyeva,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'qituvchisi:

— "Ma'rifat" mushtariylari" telegram guruhi 2019-yildagi ish faoliyatimga katta o'zgarishlarni olib kirdi. "O'qituvchi nimani o'laydi?" hamda "Mushtariy muhokamasi" ruknida o'z fikrларим bilan qatnashdim. Kitobxon o'quvchilarim bilan "Ma'rifat" kitobxonini" tanlovida yil davomida qatnashdik. Eng asosiyi, gazeta tahririyati tomonidan 2 bor faxriy yorliq bilan taqdirlandim. Men uchun bu yilgi eng yaxshi kutilmagan sovg'a o'quvchim Umida Sobirovaning "Ma'rifat" kitobxonini" tanlovida 3-o'ringa munosib topilgani bo'ldi. Yana bir o'quvchim faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Maktabimiz esa "Eng faol kitobxon maktab" nominatsiyasi g'olib bo'ldi. Bu e'tirof va e'tibordan o'quvchilarimiz hamda maktab jamoamiz yana-da ruhlandi.

Hulkarov Azimova,
Baliqchi tumanidagi
50-maktab o'qituvchisi:

— Bu guruh meni yaqin hamrohimga aylangan. Gazetaning jonkuyar jurnalistlari ushbu guruhda berilgan har bir savolga javob qaytarishadi. Bir yil davomida bu guruh vositasida ta'limga oid ko'plab savollarga mutaxassislardan javob olindi, yana ko'plab pedagoglar muammolari o'rganilib, maqolalar yozildi. Qancha-qancha pedagoglar muammolari yechimini topdi. Kuzatib boryapman, o'qituvchilar shu guruh orqali gazeta xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishyapti, muammolarni aytilyapti. Maqolalarni yuborish tizimi ham osonlashdi. Qolaversa, gazetada chop etilayotgan har bir tanqidiy maqolaga mutasaddilardan javob olinayotgani, muammolarni yechimi topilayotgani ham ustozlarning matbuotga bo'lgan ishonchini oshiryapti.

Ilgari men uchun gazeta xodimlari bilan yaqindan muloqot qilish orzu edi. 2019-yilda orzum ushaldi. Bu chekka tuman maktabidagi ustoz uchun katta sharaf.

Hafiza Rashidova,
Termiz shahridagi
13-maktab
o'qituvchisi:

— "Marifat" mushtariylari" guruhiga a'zo bo'lgach, ish faoliyatim juda kop yangiliklarga boy bo'ldi. U orqali anchagina yutuqlarga erishdim. "O'qituvchi minbari" ruknida ta'lum jarayoniga oid maqolalarim chop etildi. "Texnologiya keraksiz fanni?", "Tashabbusni to'g'ri talqin qilaylik?", "Kashtachilik san'ati", "O'qituvchi innovatsiyadan foydalishni biladimi?" mavzularidagi maqolalarim ko'plab o'qituvchilar o'tasida muhokama qilindi. Fanimizdagi talaygina muammollarga yehim topilishida bu maqolalarning ham qaysidir ma'noda ta'siri bo'ldi, deb o'layman. Zero, "Texnologiya keraksiz fanni?" maqolasida bu fandan necha yillardan buyon darslik yo'qligini yozgan emid. Shukrki, joriy o'quv yilidan texnologiya fanidan ham zamonaviy darsliklar chop etila boshlandi.

Oybek Urunov,
Denov tumanidagi
27-maktab o'qituvchisi:

— O'tgan 2019-yil men uchun judayon quvonchiga yil bo'ldi. Sababi, "Ma'rifat"dek maqsaladari mushtarak oilada o'z o'mimga ega bo'ldim. "Mushtariy muhokamasi" sahifasining doimiy a'zosiga aylangandim. Yil davomida juda ko'plab fikrларим chop etildi. "Texnologiya keraksiz fanni?", "Tashabbusni to'g'ri talqin qilaylik?", "Kashtachilik san'ati", "O'qituvchi innovatsiyadan foydalishni biladimi?" mavzularidagi maqolalarim ko'plab o'qituvchilar o'tasida muhokama qilindi. Fanimizdagi talaygina muammollarga yehim topilishida bu maqolalarning ham qaysidir ma'noda ta'siri bo'ldi, deb o'layman. Zero, "Texnologiya keraksiz fanni?" maqolasida bu fandan necha yillardan buyon darslik yo'qligini yozgan emid. Shukrki, joriy o'quv yilidan texnologiya fanidan ham zamonaviy darsliklar chop etila boshlandi.

Sahifani Zilola MADATOVA
tayorladi.

Hoshim Hakimov,
Kitob tumanidagi
79-maktab o'qituvchisi:

— Guruh meni "Ma'rifat" gazetasi bilan yaqinlashtirdi. Bunda tajribali, ziyozi onsonlar bilan tanishdim, fikrlar almashtdim. Bu "ustoz" tushunchasining asl mohiyatini teranroq anglashimga yordam berdi. Guruh orqali ta'lum sohasida ko'plab yutuqlarga erishib kelayotgan ustozlarni yaqindan taniy boshladim, ulardan bilmaganlarimni o'rgandim, bilgalarimni boshqalar bilan bahan ko'rdim. "Ma'rifat" mushtariylari" Butun respublikamizdagi eng faol, intiluvchan, o'z kasbining fidoyisi bo'lgan pedagoglarni jamlay olgan katta maydonga aylandi. Shu guruh orqali necha bora fikrларим va maqolalarimni gazeta sahifalarida o'qib faxr va ifixor hissini tuydim. Maktab pedagogik jamoasida ham mavqeyin ortgандек bo'ldi. Havasmand bir necha o'qituvchilarimiz gazeta bilan qanday qilib yaqin hamkorlik o'matib oshaniqma qiziqishardi. Men ularni shu guruhga a'zo qildim, so'ng gazetaga ham obuna bo'ldilar. Mana shunday qilib biz "Ma'rifat" sevarlarning safimiz kengayib boryapti.

Lobar Yoqubova,
Romitan tumanidagi
13-maktab o'qituvchisi:

— Har bir yilning o'z tuhfasini, topilmalari bor. 2019-yil o'qituvchi sifatida menga juda omadli yil bo'ldi. Ayniqsa, "Ma'rifat" mushtariylari" guruhiga a'zo bo'lganim, yuragim tubida qolib ketayotgan so'zlarimni aya olish imkonini berdi. Eng muhimi, meni matbuotga yaqinlashtirdi. Shu bir yil davomida gazetada "O'quvchini qynamaylik!", "Mumtoz asarlarni yo'qotishdan asravlik" maqolalarim chop etildi. Turli mavzudagi yigirmaga yaqin fikr-mulohazalarim chiqdi. Quvonarli, "Ma'rifat" kitobxonini" tanlovida o'qituvchilarining ham ijodli ishlari berildi. Shu kichik xizmatlarim e'tiborga olinib, gazetaning faxriy yorliq va esdalik sovg'a lariga

Intizor kutilgan lug'at

"Ma'naviyatimizning javohir tamal toshi — daho Alisher Navoiy asarlar" desak arziyi. Navoiy asarlarini biz, o'qituvchilar o'qiyapmizmi? O'qisak, tushunamizmi?

Ikkinci Navoiylar — Bobur va Oghaylarni-chi?

Nega umumta'lim maktablar o'qituvchilar hozirgi zamон va jahon adib va shoirlarini o'qitishda mohirlar-u, mumtoz adabiyot namunalari ta'limalda qynaladi?

Asosiy sabab lug'atga borib taqalmaydim? Oly filologik ta'limning jiddiy nuqsoni talabaga mumtoz adabiy asarlar so'zlarini o'rgatmaslik emasmikan?

Inson, xususan talaba va o'qituvchi ruhiyati shundayki: bir g'azal mutolaasida o'nta "qiyin" so'z uchrassa, "men buni tushunmas ekanman!" deb kitobni nari surib qo'ya qoladi.

Alisher Navoiyning:

Ey, xush ulkim, ofiyat kunji manga erdi maqom,

Surayi "Vashshams"u "Vallayl" erdi virdim subhu shom

matlasi bilan boshlanadigan g'azalida o'ttizdan ortiq "qiyin" so'z uchravdiki, aksariyat donishmandlar ham hammasini bilolmasa kerak.

Yuqoridagi bayting o'zida "ofiyat", "kunj", "maqom", "sura", "Vashshams", "Vallayl", "vird", "subh" — 8 (!)ta lug'attalab "qiyin" so'z bor. Ushbu suvosti toshlariga idrokimiz qayig'i urilib-surilib parchalanib ketmaydim!

Demak, biz, o'qituvchilar universitet ta'limalda fikran mumtoz adabiy asarlar lug'ati — so'zligi bilan yetarlicha quronlanmagani ekanmiz.

Yaqinda "Akademnashr" nashriyoti "Mumtoz asarlar lug'ati" nomli kitobni bosib chiqardi. Erkin Rahmonov, Vahob Rahmonov va Mamlakat Latipova tuzgan ushbu lug'at kitobi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-11-sinf "Adabiyot" darsliklari, kollejlar va akademik litseylarning "Adabiyot" darsliklari kiritilgan mumtoz adabiyot namunalari uchun izohtalab "qiyin" so'zlar asosida yaratilgandir.

"Mumtoz asarlar lug'ati"da o'rta maktab dasturida bo'limgan yana ancha mualliflar asarlaridan ham misollar kiritilgani oliy maktab talabalari ehtiyoji ham ma'lum ma'noda inobatga olinganini ko'rsatadi. Xuldas 542 sahifada mumtoz adabiyot namunalari uchraydigan minglab "qiyin" so'zlar lug'at va izoh bilan ta'minlangan.



Annotatsiyadagi qisqa ikki gap diqqatga loyiq. Unda tuzuvchilar lug'at bilishning mislsiz ahamiyatini kashf qilganlar. Matndagi "qiyin" so'z — mavhum tushunchadir. Unga berilgan lug'at mubham so'zni anglangan tushunchaga aylanitradi. Gap yoki misra tarkibidagi so'z — tushuncha esa fikr birligiga aylanadi. Shu jarayonda kitobxonda fikrash, fikrchanlik uyg'ona boshlaydi: "Har bir so'z — fikr birligidir. Lug'at boyligi — fikr boyligi negizidir".

Biz lug'atni adabiyot darsligiga ko'makchi vosita deb hisoblaymiz. Aslida lug'at adabiyotning o'zi kabi asosiy narsadir. O'rta asrlarda donishmandlarni farhangdon deyishgan. Bu so'zning izohi "lug'at bilgich" demakdir. Demak, lug'at ham badiiy adabiyot singari fikrler xazinasidir.

Annotatsiyada yana bir metodik-uslubiy kashfiyot bor: "Bu lug'at dan ikki usulda foydalaniladi: lug'at ilmiy kitob singari boshidan oxirigacha o'qiladi; mumtoz adabiyot namunasi mutolaasi davomida uchragan "qiyin" so'z bu lug'atdan izlab topiladi".

Mualliflar nega "lug'atdan so'z izlab topishdan" ilgari "lug'atni boshidan oxirigacha o'qib chiqish" kerakligini uqtirishmoqda? Gap shundaki, lug'atga ahyon-ahyonda murojaat etamiz. Nati-jada uning asosiy boyligidan bexabar qolamiz.

Lug'atni adabiy asarday shoshmay, boshdan-oxirigacha o'qib chiqsak-chi? Lug'at tuzuvchilar kashf yotiga tan beiramiz: uni bir haftada o'qib tugatsak, kitobdagagi 8 mingta so'zdan 5-6 mingi yodimizda qoladi. Bunda lug'at yodlash kabi unumsiz usul unutiladi. Matnda duch kelgan "qiyin so'z" lug'ati misra o'qilgani zahoti miyaga mixlanadi!

Bunday lug'at zaxirasiga ega bo'lgan miya bilan sinfga dadil kirib boramiz va o'quvchilarining lug'atga tegishli har qanday savollariga shartta-shartta javob bera olamiz.

"Mumtoz asarlar lug'ati" kitobining fazilatlaridan biri unda bir mavhum so'zning 2,3,4,5,6... ma'nolarining misollar orqali kashf etib berilishidir. Chunonchi quyida "kom" so'zinинг to'rt ma'nosi qayd etilgan:

Kom — 1. Jag', og'iz.

La'lingda malo-hatdin jon komida-dur lazzat,

Bu ta'm qa-

chon bergay tuz birla shakar hargiz? (Navoiy).

2. Maqsad, tilak, orzu.

Navbahor o'ldi-yu ayshim gulbuni ochilmadi,

Kom il bir g'unchasi balkim tabas-sum qilmadi. (Navoiy).

3. Luqma, rizq, ovqat.

Axzi moli harom komi o'lub, Bo'yla kom istabon haromi o'lub. ("Sab'ayi sayyor").

4. Reja, fikr, mulohaza.

Gar bu yanglig' emas durur sanga kom,

Oni ham botroq aylagil e'lom. ("Sab'ayi sayyor").

Endi quyida "Bor" so'zining o'n ikki izohini ko'raylik:

1. Yuk. Zeri bor — yuk ostida golish.

Menda agar zarra kabi ixtiyor —

Bo'lsa edi, bo'lmas edim zeri bor. ("Zarbulmasal").

2. Mavjud, bor.

Ko'rdikim, ajab shan-shavkatlik borgohi bor ekan... ("Zarbulmasal").

3. Qabul. Bor chog'i — qabul vaqt.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngil,

Nechaki borib eshigiga bor topmadim. (Bobur).

Dedikim: Tongla asrab bor chog'in,

Muhayyo aylangiz ko'rmaq yaro-g'in. ("Farhod va Shirin").

4. Takror, qayta-qayta, bir necha marta.

Ul uzub yakbora mendin rishtayi mehru vafo.

Men jafovu javridin jonlar berur-men borlar. (Munis).

5. Boricha, hammasi.

Ey Navoiy, ishq dardidin shikoyat gilmakim,

Joningga javru jafosin har ne-chakim bor etar. (Navoiy).

6. Bordin, jo'na, ket.

Issiqlig'iga gar sanga yo'qtur toqat. Sovuq yuzini ko'ray desang, G'azni bor. (Bobur).

7. Maqsad, muddao, tilak.

Haqiqat taxti uzra shohi Farxor,

To'ra birla qamuq elga berib bor... ("Gul va Navro'z").

8. Meva, samara, hosil.

Do'stlar, mehr-u muhabbatni niho-lin ekmanqiz

Kim, bo'lur ermish anga anduhu hijron bargu bor. (Navoiy).

9. Marta. Bore — bir marta, yana bir marta.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,


Nechakim borib eshigiga bor top-madim. (Bobur).

10. Moyil.

Bu bolig'aning ko'ngli borga o'xshaydi. ("Zarbulmasal").

11. Sovg'a, to'yona. 12. Homila singari ma'nolari ham bor.

Bu misollar muayyan so'zning matndagi ma'no jilolarinigina emas,



balki fikran har xilligini ham namoyish etmoqda. Demak, lug'at kitobi so'zning asl lug'atidan tashqari matndagi yangi-yangi ma'nolarini ham kashf etib beradi.

Lug'at matndagi mayhumlikni butunlay tarqatib yuborib ma'no quyoshi ni yarqiratib ko'rsatadi. Lug'at eski so'zlarni izohlab gapni yangilaydi yoki yangi kutilmagan ma'noni bizga manzur etadi.

Chunonchi, quyidagi bayting ikkinchi misrasi:

Ishqsiz ul tanki, aning joni yo'q, Husnni netsun kishikim, oni yo'q. ("Hayrat ul-abror").

Ma'nosи mubham "on" so'zi tufayli mazmuni mavhumi.

"Mumtoz asarlar lug'ati" kitobini ochsak, bu so'zning ma'nosи "latofat, latiflik" deydi (352-bet). Shunga ko'ra, ikkinchi misra mazmuni shunday bo'la-di: "Latofatsiz husnning (chiroyning) kimga keragi bor??"

Mumtoz asarlar lug'ati o'rta maktablarining 5-11-sinflarida dars beradi-gan barcha o'qituvchi va o'quvchilar uchun suv va havoday zarur qo'llanmadir. Chunki darslikda mumtoz matn tarkibidagi barcha qiyin so'zlar lug'ati berilavermaydi.

Qolaversa, adabiyot o'qituvchisi 5-11-sinflarda o'quvchilarga lug'at daftari tuttirishi va muntazam ravishda o'quvchini lug'at ustida ishlashga odal-tantirnog'i, bu sohada ko'nikma hosil qildirmog'i zarur.


Maktabga adabiy lug'atni kiritolmas, ming yillik mumtoz adabiyot o'quvchi uchun qo'l yetmas mulk bo'lib qolaveradi.

"Mumtoz asarlar lug'ati"ning kirill alifbosida bosilgani yoshi ulug' ustozlar uchun juda qulay. Biroq yosh o'qituvchi va millionlab o'quvchilar uchun unchalik qulay emas-da. Taklifim: bu kitob Xalq ta'limi vazirligi tasarrufiga olinib, tez orada uning lotin yozuvidagi nashrini yuz minglab nusxada Respublika maktablariga tarqatilsa, nur ustiga nra bo'lur edi.

Nosirjon AHROROV, Mirzaobod tumanidagi engil tili faniga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Yangi yil sarguzashti

"Ma'rifat" nomli go'zal mamlakatga tushib qoldim. Bu yurda "Ma'rifat" kitobxoni" degan tanlov e'lon qilingan ekan. Kitob o'qish — jon-u dilim. Xursand bo'lib, ishtirok etishga shoshildim. Mamlakatda 12 shahar bo'lib, ularda 12 qasr qad rostlagan edi.



O'n ikkinchi qasr, ya'manilga yetish uchun oldingi o'n bittasining sinoatidan xabardor bo'lish lozim edi. Hech ikkilanmay birinchi qasrga qadam qo'ydim. Bu yerda Qoravoy ismli bolanig ajoyib sarguzashtlariga guvoh bo'ldim. Qashshoqlig, qiyinchiliklarni bolalarcha sho'shligi bilan yenggan, yolg'onlari bilan Sariboydek ziqinaning boplab adabini bergan shumtakaga tezroq uyga qaytishni maslahat berib, xayrashdim.

Ikkinci qasr eshiklarini ochar ekanman, portfel quchoqlagan, oq kemasini kutib, sohil bo'yab yugurayotgan bolakayni uchratdim. Shirojinlar ostida uning orzularini tingladim. Bobosidan ona bug'u haqidagi ertakni berilib eshitdim. Ertak ta'sirida uchinchi qasrga kirib borsam, "Besh bolalli yigitcha" tomda jo'xori ayirib o'tir edi. Otasini urushga kuzatganda, onasini traktor bosganda Oritjon va ukalarining g'amiga sherik bo'ldim. To'rtingchi qasrda meni kattakon kema kutib turardi. Kutilmagan sinov tufayli 15

yoshida kapitan bo'lgan dovyurak va zukko o'smirning sarguzashtlaridan juda ta'sirlandim.

Mana, beshinchi manzilda turibman. Bu yerda qalbi faryod chekayotgan Qamariddin va vijdon azobi o'rtayotgan Asrorning ko'ngil qiyonoqlariga qulq tutdim. Oltinchi qasr Tom Soyer ismli bolakayning buyuk jasoratlaridan so'zladi. Ezgulik yo'lida qozonilgan g'alaba aslida Tom qo'lg'a kiritgan xazinadan ham qimmatli. Yettingchi qasr oldingilaridan ajralib turardi. Bir ko'rinnas nur sayohatim davomida muloyimlik bilan sochlardan silab, yo'llarimi yoritib bordi. Bu Hakima aya timsolidagi onajonimning mehri edi.

Sakkizinchchi qasrda Gulliver boshdan kechirgan sarguzashtlarga hamroh bo'ldim. To'g'risi, bu sayohatlarda haqiqiy go'zalik izlab ancha qynaldim.

To'qqizinchchi manzilda ma'rifatsizlik zulmati cho'kkani adirlarga babor oftobidek kirib kelgan Duyshen ustoz bir umrga xotiramda qoldi. O'ninchchi qasr sari oshiqarkanman, akam ham hamroh bo'ldi. Meshpolvonning ozodlik uchun janglari biz ham yonida bo'dik. "Gilos yedim chaqalog 'idan" qo'shig'i birga kuyladik. Mana, manzilga ham yaqinlashib qoldik. O'n birinchi qasr Musoning beg'ubor bolalik xotiralarini sari yetakladi. Insonni yorqin kelajak tomon chorlaguvchi kuch — uning bolaligi ekan. Shuning uchun biz ham bolalik bergen ne'matlar qadriga ye-

tishimiz, kelajagimiz poydevorini hozirdan qurishimiz kerak ekan.

O'n ikkinchi qasr "Qalb qassi" deb nomlanibdi. Bu joydan o'zimni va "Men" deb nomlangan asarni topdim. Shoshilib "Ma'rifat" kitobxoni" tanlovida ishtirokim sahifasini ochdim va shunday satrlarni qoraladim:

Yil davomida tanlov xayoli, e'lon qilingan asar qahramonlari, voqealari, taassurotlari bilan birga yashadim. Har bir asar qalbimda o'chmas iz qoldirdi. Ushbu tanlov menga, avvalo, badiiy asardon zavqlanishni, xulosha chiqarishni o'rgatdi, o'zimga ishonchim ortdi. Fikrlarimni yozma bayon etish mahoratimni rivojlantirdi. Tanlov bahona yurtimizning boshqa hududlaridan kitobxon do'star ortirdim. Shuningdek, to'g'ri kelgan kitobni emas, sara asarlarni tanlab o'qishni o'rganidim. Eng muhimi, o'qiganlarim — o'zimni. Bunday ajoyib imkoniyatni bergani uchun "Ma'rifat" kitobxoni"ga ming rahmat! Tanlov tugamasligini, yangi yilda yana davom etishini juda-juda xohlardim.

Mohinabonu RUSTAMOVA,
Shofirkon tumanidagi
40-maktab o'quvchisi



Duyshen timsolida ustozimni ko'rdim

"Ma'rifat" kitobxoni" tanlovidagi "Birinchi muallim" asari men uchun eng go'zal asar bo'ldi. Matonatlidi Duyshen timsolida ustozim Madina Baxshilloyevani ko'rdim. U kishi nafaqat menga, balki boshqa tengdoshlarimga ham birdek mehr beradi. Menga ishonib, olg'a qadam tashlashni o'rgatadi. Hayot yo'linda bitor masalada qiynganimda ustozimning maslahatlari, menga ishonch bilan boqib turgan nigohi ko'z oldimda namoyon bo'ladi. Va to'g'ri yo'lini topib, qadam tashlashga intilaman.



"Ma'rifat" kitobxoni" tanlovida ko'p asarlarni o'qib, ularning mazmun-mohiyatini uqishga harakat qildim. So'z boyligim oshdi. Bu tanlov menga yangi imkoniyat eshigini ochdi. Bu yil tanlovida

g'olib bo'lishni ko'nglimga tugib qo'ydim!

Madina TOSHBOLTAYEVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

Charos YOQUBOVA tayyorladi.

2019-yil men uchun ancha sermahsul bo'ldi. Ayniqa, yurtimizdagagi ilg'or nashrlardan bo'lgan "Ma'rifat" gazetasida tashkil etilgan "Ma'rifat" kitobxoni" ruknida o'qish tavsiya etilgan asarlar tafakkurim boyishiga hissa qo'shgan bo'lsa, shu o'qilgan kitoblardan olgan xulosalarimiz gazetada chop etilgani g'oyibona bo'lsa-da, turli hududlardagi tengdoshlarimiz bilan fikr almashish imkonini berdi. Chunki bir asar xususida o'zimiz ko'ra olmagan jihatlarini, boshqa kitobxonlarning mulohazalarini o'qib, ulg'aydik.

"Ma'rifat"ga tashakkur

Meni eng ta'sirlantirgani Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" qissasi bo'ldi. Garchi asar haqidagi fikrlarimni gazetaga yuborishga ulgurmagan bo'lsamda, kitobni ko'zda yosh bilan o'qidim.

Duyshenning bolalarga mehri, jonkuyarligi ko'z oldimda jonlangani sari o'zimning birinchi muallimim xayolimdan o'taverdi. Bizga onalarcha mehribonligi, sovuq kunlari muzlagan qo'llarimizni asta silab, isitib qo'yani,

katta yo'lda ehtiyojkorlik bilan yurib, uyga yetib olishimizni ta'kidlashi xotiramni band etdi. Angladimki, odam qaysi sohani tanlasmasin, kim bo'lsasin, avvalo, inson ekanini unutmasligi lozim. Kelajakda o'qituvchi bo'lmochiman. Ana shunda Duyshen muallim kabi har qanday qiyinchilikka tik qaray oladigan, bolalarni sevadigan ustoz bo'laman.

Marjona BARNOYEVA,
Romitan tumanidagi
13-maktab o'quvchisi

"Marifat" kitobxoni" tanlovi meni kitobga yanada yaqinlashtirdi. To'g'risi, oldinlari kitob o'qishdan ko'ra stadionda koptok tepish ko'proq yozardi. Hozir ikkalasiga ham ulguryapman.

Tanlov kitobga yaqinlashtirdi

G'afur G'ulomning "Shum bola" asaridagi Qoravoy menga juda yoddi. Chunki uning sarguzashtlari, hayoti ishonarli qilib, ajoyib tasvirlangan. Shu asar menga ko'zgu bo'ldi, unda o'zimga xos jihatlarini uchratdim. Shum boladek yerga ursa, ko'kka sapchiyidan sho'x emasman, lekin unga o'xshab ishkak chiqarib qo'yishim rost. Kuchuk boqib olgandik. Uni yaxshilab parvarish qilaman, deb tovuqning donidan yedirib, kasal qilib qo'yganimda rosa gap eshitganman. Biroz dangasaroqman.

Oyim "quduqdan suv tort", desa, quduq buzilib qoladimi-ye, sunvi ariqdan keltir, desa, chelagim surga tushib ketadimi-ye, xuldas, sanasam, Qoravoyning shumliklariidan oshadi chog'i. Lekin maktabda baholarim yaxshi va a'lo, hatto she'r ham yozib turaman. Gohida arzimagan yumush deb onamni ranjitib qo'yanimda uyalaman. Onam Prezident maktabida o'qishimni istaydi.

Sultonali RUSTAMOV,
Shofirkon tumanidagi
40-maktab o'quvchisi



"Ma'rifat" gazetasiga o'tkazgan tanlov tufayli 12 oy davomida miriqib kitob o'qidim. Dunyoqarashim yanada boyidi. Asarlar ichida menga eng manzur bo'lgani, nuqsonlarimni o'rsatsangani bu — "Birinchi muallim". Asarni o'qib hayotimdagagi hikmatni tushundim. Oilada yolg'iz farzandman. Shuning uchunmi, ozgina erkaligim bor. Sinfodosh do'stlarimga bu malol kelarkan. Hatto barcha ustozlardan ko'proq e'tibor talab qilishim atrofdagilarga yoqmas ekan.

Asarlar ham ustoz!

Asarni o'qiganimda Oltinoy Sulaymonovning kamtarin hayoti, o'quvchilik yillaridagi mashhaqqatini ko'rib, o'zimdan uyalib ketdim. Erkaligim, ozgina bilimim bilan maqtanishim, do'stligimni mensimasligimni o'ylab, o'zimni kundan kun tahlil qilyapman.

"Ma'rifat" kitobxoni" menga ko'p saboq berdi. Kutubxonam esa yana 12 kitoba boyidi. Yangi yilda barcha do'stligim uchun eng yaxshi do'st, ustozlarim uchun esa eng yaxshi o'quvchi bo'lishga va'da beraman. Menga hayot sabog'ini o'rgatgan asarlardan minnatdorman.

Umida SOBIROVA,
Romitan tumanidagi
23-IDUM o'quvchisi

Xalqaro hamkorlik

Yaponcha ta’lim tarbiyadan boshlanadi

Bugungi o’qituvchi ko’proq izlanishi, ta’limdagi innovatsion jarayonlarni o’rganib borishi, chet ellik hamkasblari bilan tajriba almashib turishi maqsadga muvofiq. Zero, mamlakatimiz o’quvchilarining bilimini xalqaro baholash mezonlari asosida sinovdan o’tayotgan bir vaqtida bu juda ham muhim. Shu maqsadda Namangan viloyat xalq ta’limi boshqarmasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan izchil hamkorlik o’matmoqda.

Yaqinda viloyatimiz xalq ta’limi xodimlari qatorida men ham Yaponiyaga bordim. Sayohatimiz davomida kunchiqar mamlakat ta’lim tizimidagi ilg’or tajribalar va zamonaviy metodlari o’rganib qaytdik.

Biz Tokio prefekturasidagi 5 ta obyektda bo’ldik. Jumladan, Tokioning Nakano hududidagi “Nakano City, Karnisaki Kindergarten” maktabgacha ta’lim tashkiloti, “Kita — Nakano Junior High School” o’rta maktabi, “Nakano Musashidai” boshlang’ich maktabi, Suginami hududidagi “Suginami Junior High School” maktabi hamda “Shin-Kyokushinkai” xususiy karate maktabida bo’ldik. Mazkur muassasalaridagi o’quv jarayonini kuzatib, Yaponiya ta’limidagi yuksak taraqqiyot asoslarini anglatik.

Yaponiya ta’lim tizimi 3 bosqichga bo’limdi. Boshlang’ich ta’lim 1-sinfdan 6-sinfgacha, o’rta ta’lim 7-dan 9-sinfgacha, yuqori ta’limga esa 10-11-sinflar yoki kollejlar kiradi. Majburiy ta’lim 9 yillik bo’lib, davlat konstitutsiyasining 26-moddasida belgilab qo’yligan, yuqori ta’limda esa o’quvchi ixtiyoriy o’qiydi. Ammo yapon o’quvchilarining 98 foizi yuqori ta’limda o’qishni lozim topishadi. Shu bois ta’limming bu bosqichi ham ular uchun majburiydek bo’lib qolgan. Darslar saat 9:00dan 15:00 gacha haftasiga 5 kun o’tiladi. Mashg’ulot 45 daqiqa davom etadi. Darsdan so’ng barcha o’quvchilar sport yoki musiqa to’garagiga boradi. Maktablarda o’quvchilarning bilim olishi uchun barcha sharoit mavjud. Keng va yorug’ xonalar, badiiy va elektron kitoblarla boy kutubxonalar, barcha sport anjomlari bilan ta’milangan sport zallari, suzish havzalari, raqs o’rganish xonalari va faollar zali, ovqatlanish uchun zamonaviy oshxonalar mavjud. Tozalash ishlarini bog’chadan boshlab barcha ta’lim muassasalarida bolalarning o’zi bajaradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar o’ynichoqlarni yoyib, istagancha o’ynashi mumkin. Ammo o’yn yakunida o’zlar yig’ishtirib, tarbiyachilarining rahmatini eshitishni istashar ekan. Bu holat boshlang’ich sinfda ham davom ettirilib, bunga ota-onalar hech qanday e’tiroz bildirmaydi. Bolani mehnata o’rgatish yapon xalqining an’anasiga aylanib ulgur-gani holda bugun ularning ta’lim jarayoniga ham singib ketgan. Maktablardan binosining har bir qavatida rakovinalar bo’lib, maxsus ilgichlar har bir o’quvchining



ismi tushirilgan matolar ilib qo’ylidi va darsdan so’ng bolalar ular vositasida sinfonalarini tozalab ketadilar. Hojatxona va zina, bino tashqarisni farroshlar tomonidan tozalanadi.

Ba’zi ta’lim muassasalari bog’cha, maktab va universitetdan tarkib topgan. Bunday tizim juda yaxshi samara beradi. Davlat maktablarida o’qish bepul bo’lib, ota-onasi tomonidan faqat tushlik uchun ma’lum miqdorda pul to’lanadi. Yuqori ta’limda esa maktabsi oshxonasidan yoki udyan yegulik olib kelib tanovul qilish mumkin. Boshlang’ich sinfdan yuqori sinflargacha ovqatni suzib olib kelish va idishlarini yig’ishtirish o’quvchining o’zi tomonidan bajariladi.

